

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Аброровна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	



MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI

Temirov E.I.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Sun’iy intellect” kafedrası mustaqil izlanuvchisi (PhD)



Annotatsiya: Milliy turizm ekotizimini xalqaro raqamli platformalarga integratsiya qilishning strategik mexanizmlari iqtisodiy va texnologik jihatdan asoslangan. Tadqiqotda Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTHD) konsepsiyasi, Ochiq API arxitekturası, GDS va OTA platformalari bilan ko'p qatlamli integratsiya, davlat-xususiy sektor hamkorligi modeli hamda investitsiya samaradorligini baholash yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Tahlillar asosida NTHD orqali vositachilik xarajatlarini 38 foizdan 8 foizgacha kamaytirish, mijoz narxini 21,7 foizga arzonlashtirish, NPV $\approx$ 180–280 mlrd so'm, IRR $\approx$ 28–34 foiz va investitsiya qaytim muddatini 3,2–3,8 yil darajasida ta'minlash imkoniyati asoslangan.

Kalit so'zlar: milliy turizm ekotizimi, NTHD, Ochiq API, GDS, OTA, raqamli integratsiya, tranzaksion xarajatlar, davlat-xususiy sheriklik, NPV, IRR.

Аннотация: В статье экономически и технологически обоснованы стратегические механизмы интеграции национальной туристской экосистемы в международные цифровые платформы. Рассмотрены концепция Национального цифрового туристского хаба (NTHD), архитектура открытых API, многоуровневая интеграция с платформами GDS и OTA, модель государственно-частного партнерства и подходы к оценке инвестиционной эффективности. На основе анализа обоснована возможность снижения посреднических издержек с 38% до 8%, удешевления цены для клиента на 21,7%, достижения NPV $\approx$ 180-280 млрд сумов, IRR $\approx$ 28-34% и срока окупаемости инвестиций 3,2-3,8 года.

Ключевые слова: национальная туристская экосистема, NTHD, открытый API, GDS, OTA, цифровая интеграция, транзакционные издержки, государственно-частное партнерство, NPV, IRR.

Abstract: The article provides an economic and technological justification for strategic mechanisms of integrating the national tourism ecosystem into international digital platforms. The study examines the concept of the National Tourism Digital Hub (NTHD), open API architecture, multi-layer integration with GDS and OTA platforms, a public-private partnership model, and approaches to evaluating investment efficiency. The analysis substantiates the possibility of reducing intermediary costs from 38% to 8%, lowering customer prices by 21.7%, achieving NPV $\approx$ 180-280 billion UZS, IRR $\approx$ 28-34%, and an investment payback period of 3.2-3.8 years.

Keywords: national tourism ecosystem, NTHD, Open API, GDS, OTA, digital integration, transaction costs, public-private partnership, NPV, IRR.

KIRISH

Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan ham bu xulosa mantiqan asoslanadi. Milliy axborot tizimlarini xalqaro raqamli makon bilan sinxronlashtirish bu endi strategik tanlov emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikning yangi shartidir. Dunyo banki tadqiqotlari ko'rsatishicha, raqamli iqtisodiyotda global ma'lumot oqimlariga ulangan mamlakatlarning eksport daromadlari ulangan bo'lmagan mamlakatlarnikidan o'rtacha 3,2 baravar tez o'sadi [1, 12b]. Turizm sohasi uchun bu nisbat ayniqsa ahamiyatli, chunki sayyoh xizmatni sotib olishdan avval onlayn tekshiradi, solishtiradi, sharhlarni o'qiydi va faqat so'ngra qaror qabul qiladi. Agar O'zbekiston mehmonxonasi bu jarayonning birorta bosqichida ko'rinmasa, u yo'qoladi.


Tadqiqotning maqsadi: Katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalari asosida O'zbekiston turizm sanoatini rivojlantirish iqtisodiy samaradorligini oshirish, milliy turizm ekotizimini xalqaro raqamli platformalarga integratsiyalashtirishning strategik mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Milliy turizm ekotizimini xalqaro GDS tizimlari, OTA platformalari va ochiq

ma'lumotlar arxitekturasini bilan integratsiyalashtirishning strategik mexanizmlarini — Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTDH) konsepsiyasini — ishlab chiqish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti: O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi va uning raqamli ekotizimi bo'lib, u turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar (mehmonxonalar, tur operatorlari, aviakompaniyalar va boshqa ishtirokchilar), turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimi, raqamli infratuzilma komponentlari hamda milliy turizm bozorining xalqaro raqamli platformalar bilan o'zaro integratsiyasi va hamkorlik munosabatlarini qamrab oladi.

Tadqiqotning predmeti: Turizm sanoatiga katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini joriy etish va tarmoqni xalqaro raqamli makonga integratsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy, tashkiliy va boshqaruv munosabatlari, ushbu munosabatlarni modellashtirish, baholash va takomillashtirish metodologiyasi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston turizm tarmog'ining xalqaro integratsiya yo'l xaritasi: bosqichma-bosqich o'sish¹

1-rasmda ko'rsatilgan taqqoslov iqtisodiy farqni aniq raqamlarda ifodalaydi. Bozor qamrovi jihatidan global tizimga ulanish (78) lokal tizimdan (22) 3,5 baravar katta ustunlik beradi. Ayni paytda tranzaksion xarajat ko'rsatkichida teskari manzara: global tizimga ulanish nisbiy xarajatni 38 ga tushiradi (lokal tizimda 100 birlik). Bu paradoks aslida paradoks emas — global platformalar miqyos iqtisodiyoti (economies of scale) tufayli har bir tranzaksiya xarajatini keskin pasaytiradi, bir vaqtning o'zida keng bozor qamrovini ta'minlaydi [16, 52b].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda turizm sanoatining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turizm xizmatlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonining raqamli platformalar bilan integratsiyalashuvi bozor shaffofligini oshiradi, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi hamda xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar, ochiq API texnologiyalari, Global Distribution System (GDS) hamda Online Travel Agency (OTA) ekotizimlarining iqtisodiy samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda.

Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan mazkur yo'nalishning nazariy asoslari The Nature of the Firm asarida shakllantirilgan tranzaksion xarajatlar nazariyasiga borib taqaladi. Coase bozor ishtirokchilari o'rtasidagi axborot izlash, muzokaralar olib borish va shartnomalarni bajarish bilan bog'liq xarajatlar iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslagan. Ushbu nazariya turizm sohasida ham dolzarb bo'lib, mehmonxonalar, tur operatorlari, GDS tizimlari va OTA platformalari o'rtasidagi vositachilik zanjiri xarajatlarni oshirishini izohlashga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy raqamli integratsiya vositalari aynan tranzaksion xarajatlarni qisqartirishning institutsional mexanizmi sifatida qaralmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida API texnologiyalarining iqtisodiy ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda turli axborot tizimlari o'rtasida standartlashtirilgan ma'lumot almashinuvi xizmatlar ko'rsatish tezligini oshirishi, takroriy operatsiyalarni kamaytirishi hamda platformalararo integratsiyani soddalashtirishi qayd etiladi. Xususan, Richardson va Avots API iqtisodiyotini turizm sanoatida qiymat yaratishning yangi bosqichi sifatida baholab, ochiq API arxitekturasini turistik xizmatlarning real vaqt rejimida boshqarilishi va platformalararo o'zaro ishlash imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv milliy turizm axborot tizimlarini xalqaro GDS va OTA platformalari bilan integratsiyalashning texnologik asoslarini shakllantiradi.

1 Muallif tomonidan WEF, Phocuswire ma'lumotlari asosida tuzilgan, 2026.



Turizm xizmatlarini real vaqt rejimida boshqarish va iste'molchi bilan hamkorlikda qiymat yaratish masalalari Buhalis va Sinarta tomonidan chuqur o'rganilgan. Mualliflar zamonaviy turizm bozori tobora ko'proq real vaqt ma'lumotlari, sun'iy intellekt elementlari va raqamli platformalar asosida faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Ularning fikricha, turistlarning qaror qabul qilish jarayonida narx, mavjudlik, sharhlar va xizmat sifati haqidagi ma'lumotlarning tezkor yangilanib borishi raqobat ustunligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bu esa milliy turizm platformalarining xalqaro axborot makoniga uzluksiz integratsiyalashuvini zarur qiladi.

Platforma iqtisodiyoti nazariyasida ikki tomonlama bozorlar konsepsiyasi alohida o'rin egallaydi. Rochet va Tirole ikki tomonlama platformalar qiymati foydalanuvchilar sonining ortishi bilan oshib borishini ilmiy jihatdan asoslagan. Ushbu tarmoq effekti turizm platformalari uchun ham xos bo'lib, mehmonxonalar va turistlar sonining ko'payishi platformaning umumiy iqtisodiy qiymatini oshiradi. Shapiro va Varian ham tarmoq iqtisodiyoti sharoitida ma'lumotlar va platformalar strategik resursga aylanishini, yagona standartlarning shakllanishi esa bozorga kirish xarajatlarini kamaytirishini ta'kidlaydi. Mazkur nazariyalar milliy darajadagi yagona raqamli platformani yaratish iqtisodiy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi.

Raqobat ustunliklari nazariyasiga ko'ra, Porter hududiy klasterlar va o'zaro bog'langan tashkilotlar tarmog'i innovatsiyalarni tezlashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini qayd etgan. Turizm sohasida ushbu yondashuv mehmonxonalar, transport korxonalari, tur operatorlari, davlat organlari va IT-kompaniyalar o'rtasidagi raqamli hamkorlikni yagona klaster sifatida shakllantirish zarurligini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, Milliy Turizm Raqamli Xabi konsepsiyasi klaster ishtirokchilarini yagona raqamli ekotizimga birlashtiruvchi koordinatsion platforma sifatida talqin qilinishi mumkin.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyati Jahon banki va OECD tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu manbalarda davlatning institutsional va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashi xususiy sektor innovatsion salohiyati bilan uyg'unlashgandagina yirik raqamli loyihalar yuqori iqtisodiy samara berishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan standartlarni ishlab chiqish, axborot xavfsizligini tartibga solish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish investitsion xavflarni kamaytiruvchi omil sifatida baholanadi.

Axborot xavfsizligi va ma'lumotlar almashinuvi masalalari ham zamonaviy turizm platformalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. ISO/IEC 27001 standarti axborot xavfsizligini boshqarish tizimlarini tashkil etish bo'yicha xalqaro talablarni belgilaydi. Ostrom esa institutsional ishonch va umumiy resurslarni boshqarish nazariyasida ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro ishonchning barqaror hamkorlikni ta'minlashdagi hal qiluvchi rolini asoslab bergan. Ushbu yondashuvlar turizm ma'lumotlarini almashishda ochiqlik va maxfiylik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliy tajriba ham milliy raqamli platformalarni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Ispaniyaning SEGITTUR dasturi va Singapur Turizm Kengashining raqamli transformatsiya tashabbuslari davlat, biznes va texnologik kompaniyalar hamkorligiga asoslangan boshqaruv modeli orqali turizm xizmatlarining raqamlashtirilishini jadallashtirishga erishgan. Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham markazlashgan Milliy Turizm Raqamli Xabini joriy etish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati API integratsiyasi, platforma iqtisodiyoti, tranzaksion xarajatlar yoki davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini alohida yo'nalish sifatida o'rganadi. Biroq ularning aksarida ushbu yondashuvlar yagona milliy turizm ekotizimi doirasida kompleks integratsiyalashmagan, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar sharoitida GDS, OTA, ochiq API, Big Data va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yagona iqtisodiy model sifatida baholash yetarlicha yoritilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida ushbu tadqiqotda O'zbekiston uchun Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTHD) konsepsiyasi ishlab chiqilib, uning iqtisodiy samaradorligi hamda xalqaro raqamli platformalar bilan integratsiyalashuv mexanizmlari kompleks yondashuv asosida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotda Jahon banki, OECD, UN Tourism, O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlari hamda xalqaro turizm platformalari materiallaridan foydalanildi. Yig'ilgan ma'lumotlar qiyosiy, mantiqiy va iqtisodiy tahlil usullari orqali baholandi. Shuningdek, ma'lumotlarni tizimlashtirish, umumlashtirish va natijalarni vizuallashtirish jarayonlarida sun'iy intellekt vositalaridan yordamchi instrument sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy turizm ekotizimini xalqaro raqamli platformalarga integratsiya qilishning texnologik asosi — Ochiq API (Application Programming Interface) arxitekturasiga asoslangan ko'p qatlamli ma'lumot almashinuv tizimini qurishdan iborat. API — bu turli dasturiy tizimlar o'rtasida standartlashtirilgan tarzda ma'lumot almashishning

texnologik protokoli. Iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan xususiyati shuki, API integratsiyasi vositachilik xarajatlarini kamaytiradi — har ikkala tomon o'rtasida to'g'ridan to'g'ri va avtomatik ma'lumot oqimi yo'lga qo'yiladi, shaxsiy muzokaralar va qo'lda koordinatsiya zarurati yo'qoladi (2-rasm) [3, 88b].


Rasm 38. Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTDH) arxitekturası: ma'lumot oqimlari va integratsiya sxemasi
(muallif tomonidan ishlab chiqilgan model, 2025)
MILLIY TURIZM RAQAMLI XABI (NTDH) — O'zbekiston



2-rasm. Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTDH) arxitekturası: ma'lumot oqimlari va integratsiya sxemasi²

2-rasmda tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan to'rt qatlamli arxitektura tasvirlangan. Global platformalar qatlami — Amadeus GDS, Booking.com Partner API, UNWTO Open Data, Expedia va xalqaro to'lov tizimlari — yuqorida joylashgan. Mahalliy turizm subyektlari — mehmonxona PMS/CRM, tur operatorlari, aviakompaniya va UzTour agregatori — quyi qatlamda. Ikkinisi bog'lovchi markaziy element — Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTDH — National Tourism Digital Hub) — o'rta qatlamda joylashgan. Pastki qatlamda ishlab chiqilgan gibrid prognoz modeli va analitika tizimi joylashgan. Bu arxitekturaviy yondashuv ma'lumot oqimining ikki tomonlama ekanligini ta'minlaydi: mahalliy subyektlar global platformalarga inventar va narx ma'lumotlari yuboradi; global platformalar esa bron signallari, sentimental ko'rsatkichlar va talab prognozini qaytaradi [4, 44b].

API integratsiyasining iqtisodiy mohiyati: tranzaksion xarajatlarni kamaytirish. Kouz nazariyasi (1937-yil) [2, 17b] asosida aytganda, bozor munosabatlari tranzaksion xarajatlar tufayli samarasizlashadi — axborot izlash, muzokaralar olib borish va shartnomani bajarish xarajatlari tomonlarni zararli holatga tushiradi. Turizm sohasida bu to'rt vositachilik qatlamida namoyon bo'lgan: mehmonxona → tur operator → GDS → sayohat agenti → mijoz. Har bir qatlam o'z marjasini qo'shadi. API integratsiyasi bu zanjirni qisqartiradi: mehmonxona → NTHD API → global platforma → mijoz. Shu orqali umumiy vositachilik xarajati 38 foizdan 8 foizga tushadi (3-rasm) [3, 92b].



3-rasm. API integratsiyasi va NTHD vositasida tranzaksion xarajatlar qisqarishi³

3-rasmda ko'rsatilgan diagramma vositachilik xarajatlarining iqtisodiy miqdorini aniq ko'rsatadi. Hozirgi kunda mehmonxona belgilagan narxdan mijoz to'laydigan umumiy narx GDS komissiyasi (+18%), OTA komissiyasi (+15%), valyuta konversiyasi (+3%) va to'lov tizimi xarajati (+2%) tufayli 138 birlikka yetadi, ya'ni mijoz mehmonxona belgilagan narxdan 38 foiz ko'proq to'laydi. NTHD modeli joriy etilgandan keyin bu ko'rsatkich 108 birlikka tushadi. NTHD API komissiyasi (8%) va to'g'ridan to'g'ri to'lov (-8% tejash) tufayli mijoz

2 Muallif tomonidan SEGITTUR va STB arxitekturası asosida moslashtirilgan.

3 Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan, 2026



uchun umumiy narx 30 birlikka, ya'ni 21,7 foizga arzonlashadi. Bir vaqtning o'zida mehmonxona xuddi shu narxdan ko'proq sof daromad oladi, chunki vositachilik xarajatlari qisqaradi (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro GDS va OTA platformalari bilan integratsiya mexanizmlari: NTHD uchun tavsiyalar⁴

Platforma / Tizim	Integratsiya mexanizmi	O'zbekiston uchun afzallik	Xarajat ko'rsatkichi
Amadeus GDS (Hotel API)	Amadeus Hotel Distribution API orqali real vaqt inventar, narx va bronlash sinxronizatsiyasi	Global sayohat agentlari (500 000+) uchun ko'rinish; korporativ segment kirish	Birlashtirish xarajati: \$15-25K; komissiya: 5-8% (to'g'ridan-to'g'ri ulanishda - NTHD orqali 2.5-4%)
Sabre SynXis (Hospitality Cloud)	SynXis API orqali mehmonxona boshqaruv tizimi bilan integratsiya; GDS va OTA kanallarni boshqarish	Bitta API dan 400+ kanal boshqaruvi; to'lov moslashtirish; loyallik dasturlari bilan sinxronizatsiya	Yillik SaaS to'lov: \$8-18K/ mehmonxona; NTHD orqali korporativ shartnoma: -35%
Booking.com Partner API	Extranet yoki REST API orqali real vaqt narx/mavjudlik; to'g'ridan-to'g'ri ulanish imkoniyati	140 mln.+ faol foydalanuvchi; AI-asosida tavsiya tizimiga kirish; sharhlar platformasi	Komissiya: 15-18% (standart); milliy shartnoma orqali: 10-13%
Expedia Group Hotelbeds API	Hotelbeds Partner Central API; global B2B tarqatish; yirik tur operatorlar bilan avtomatik integratsiya	B2B kanali - 60 000+ tur operatori va agentlik; ko'rinmaslik muammosini bartaraf etish	Komissiya: 12-16%; milliy paket shartnoma: -20-25%
UNWTO Open Data API	RESTful ochiq API orqali xalqaro turizm statistikasi olish va berish; destinatsiya profili yangilash	Global turistik karta va statistika bazasiga kirish; xalqaro e'tiborni jalb qilish	Bepul (UNWTO a'zolik doirasida); ma'lumot sifati sertifikatlash: \$2-5K/yil


1-jadvaldan ko'rinadigan muhim iqtisodiy xulosalar quyidagicha. Birinchi — milliy shartnoma modeli (NTHD orqali ommaviy ulanish) individual korxona ulanishiga nisbatan 20–35 foiz arzonroq komissiya sharoitini ta'minlaydi. Bu miqyos iqtisodiyotining aniq namunasi: 500 mehmonxona birgalikda Amadeus bilan muzokaraga kirishsa, ularning har biri alohida kelishadigan shartlardan ancha yaxshirog'i kutiladi. Ikkinchi — UNWTO Open Data API integratsiyasi deyarli xarajatsiz, ammo O'zbekistonga xalqaro statistik e'tibor va destinatsiya reytingini oshirish uchun muhim vosita. Uchinchi — to'lov tizimi integratsiyasi turizm daromadlarining hisobga olinmaydigan ("yashirin") qismini rasmiylashtirishga va fiskal samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [5, 67b].

NTHD konsepsiyasi: iqtisodiy asoslanish. Ishlab chiqilgan Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTHD) konsepsiyasi faqat texnik infratuzilma emas — bu, birinchi navbatda, iqtisodiy koordinatsion mexanizm. NTHDning asosiy iqtisodiy funksiyasi — mahalliy turizm subyektlari va global platformalar o'rtasida axborot assimetriyasini bartaraf etish, tranzaksion xarajatlarni pasaytirish va kichik hamda o'rta korxonalarga yirik xalqaro tizimga kirish imkoniyatini ta'minlash [6, 88b]. Bu funksiya sanoat klasterlari nazariyasi (M. Porter) [11, 33b] doirasida ko'rib chiqilganda, NTHD aslida turizm klasterining raqamli integratsiya platformasi sifatida namoyon bo'ladi.

NTHDning iqtisodiy asoslanishida uchta fundamental argument muhim o'rin tutadi. Birinchi argument — miqyos iqtisodiyoti. Alohida korxona Amadeus yoki Sabre bilan integratsiya uchun 15–25 ming AQSh dollari investitsiya va yillik 8–18 ming AQSh dollari texnik xizmat haqi to'lashi kerak. NTHD bu xarajadni barcha ishtirokchi korxonalar o'rtasida taqsimlaydi — bir korxona hissasiga to'g'ri keladigan xarajat 5–8 baravar kamayadi [7, 33b]. Ikkinchi argument — tarmoq effektlari. NTHDga qo'shilgan korxonalar soni oshgani sari, platforma qiymati geometrik progressiyada oshadi — ko'proq ma'lumot, yaxshiroq prognoz, kuchliroq muzokaralar pozitsiyasi. Uchinchi argument — tizimli xavf-xatarlarni boshqarish. Yagona platforma xavfsizlik sertifikatlashni (ISO 27001, PCI DSS) bir marta amalga oshiradi va bu barcha ishtirokchilarga ham qo'llaniladi [8, 156b].

DXSh modeli va investitsiya taqsimlash. NTHDni qurishning institutsional modeli sifatida muallif davlat-xususiy sektor hamkorligi (DXSh) mexanizmini taklif etadi. Bu modelda davlat asosiy infratuzilmani (server, tarmoq, xavfsizlik) ta'minlaydi, xususiy sektor esa texnologiyani rivojlantirish, marketing va kundalik operatsiyalarni boshqaradi [9, 211b]. Bunday taqsimlash har ikkala tomonning qiyosiy ustunligiga asoslanadi: davlat — infratuzilma resurslariga va huquqiy bazani shakllantirishga, xususiy sektor esa texnik kompetensiya va tijorat samaradorligiga ega (4-rasm) [10, 45b].

4 Amadeus, Booking Holdings, Phocuswire muallif tahlili asosida tuzilgan, 2026.



4-rasm. NTHD uchun davlat-xususiy sektor hamkorligi (DXSh) modeli: investitsiya va javobgarlik taqsimlash⁵

4-rasmda DXSh modelining investitsiya taqsimlash tarkibi ko'rsatilgan: davlat infratuzilma sarmoyasi (45 foiz), xususiy sektor texnologiya ulushi (32 foiz), xalqaro grant va qarz (15 foiz), tur operatorlar ulushi (8 foiz). Bu taqsimlash Singapur STB modeliga asoslanib, muallif tomonidan O'zbekistonning fiskal imkoniyatlari va bozor tuzilishiga moslashtirilgan [14, 22b]. Javobgarlik taqsimlash grafigida esa texnologiyani rivojlantirish (70 foiz xususiy) va daromadni boshqarish (75 foiz xususiy) sohalari xususiy sektorga ko'proq berilgan, infratuzilmani ta'minlash (80 foiz davlat) va xavfsizlik nazorati (75 foiz davlat) esa davlatda qolgan.

NTHD loyihasining iqtisodiy samaradorligini hisoblash uchun tadqiqotchi tomonidan quyidagi sof joriy qiymat (NPV) modeli taklif etiladi:

$$NPV_{NTHD} = \sum \left[\frac{(\Delta R_t - \Delta C_t)}{(1+r)^t} \right] - I_0$$


bu yerda: ΔR_t — t -yilida NTHD tufayli qo'shimcha turizm daromadi (xalqaro bozorga kirish, vositachilik komissiyalarining kamayishi, turistlar sonining o'sishi); ΔC_t — t -yilida NTHDning operatsion va texnik xarajatlari; r — diskontlash stavkasi (O'zbekiston uchun $r \approx 14$ –16 foiz tavsiya etiladi); I_0 — dastlabki implementatsiya investitsiyasi; $t = 1, 2, \dots, T$ (loyiha hayot davri, $T = 7$ –10 yil). Prognoz hisob-kitoblar asosida: $NPV \approx 180$ –280 mlrd so'm ($T = 7$, $r = 15$ foiz), $IRR \approx 28$ –34 foiz, investitsiya qaytim muddati $\approx 3,2$ –3,8 yil (2-jadval; 5-rasm).

2-jadval. NTHD implementatsiyasining bosqichma-bosqich amalga oshirish rejasi (muallif taklifi, 2025-2028)⁶

Bosqich	Muddat	Asosiy faoliyatlar	Kutilayotgan natija (KPI)	Mas'ul tomon
1 (Poydevor)	2025 I-II ch.	Milliy API standartlar tasdiqlash; qonuniy-me'yoriy baza shakllantirish; texnik spetsifikatsiya; pilot mehmonxonalar tanlash (20 ta)	API standarti: HTNG/OTA2.0 mosligi; 20 pilot korxona texnik tayyor	Raqamli tex. vazirligi + O'zbekturizm
2 (MVP pilot)	2025 III-IV ch.	API Gateway qurilishi; Booking.com va Amadeus pilot integratsiya; to'lov tizimi ulanish; xavfsizlik audit	20 pilot mehmonxona GDS da ko'rinish; real vaqt inventar sinxronizatsiyasi	IT konsortsiumi + Raqamli tex. vazirligi
3 (Kengaytirish)	2026 yil	100+ mehmonxona qo'shish; barcha yirik tur operatorlar integratsiyasi; Open Data platformasi; analitika dashboard	100+ tashkilot ulanish; birinchi turizm ochiq ma'lumotlar to'plami e'lon qilish	O'zbekturizm + xususiy sektor
4 (To'liq tizim)	2027- 2028	Barcha 500+ sertifikatlangan mehmonxona; AI prognoz modeli integratsiya; xalqaro turizm ma'lumotlar almashinuvi; xavfsizlik sertifikatlash (ISO 27001)	NTHD to'liq operatsional; O'zbekiston GDS va UNWTO ma'lumotlar bazasida faol ishtirok	Barcha tomon + xalqaro hamkorlar

⁵ Muallif tomonidan Ispaniya SEGITTUR va Singapur STB tajribasi asosida ishlab chiqilgan, 2026.

⁶ Muallif tomonidan SEGITTUR , STB tajribasi asosida ishlab chiqilgan, 2026.



5-rasm. NTHD loyihasining kumulativ moliyaviy oqimi va investitsiya qaytim tahlili (prognoz, 2025-2030)⁷

5-rasmda keltirilgan cash flow tahlili NTHD investitsiyasi taxminan 3,5 yildan keyin qaytim nuqtasiga (break-even) yetishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich Ispaniya SEGITTUR loyihasi uchun (2,8 yil) va Singapur Digital Tourism Hub uchun (3,1 yil) qayd etilgan ko'rsatkichlar bilan to'liq taqqoslanadi [13, 34b; 14, 22b]. 2026-yilga kelib kumulativ daromad investitsiya xarajatlarini qoplay boshlaydi, 2027-yil oxirida esa sof ijobiy kumulativ cash flow 1 mlrd so'mdan oshib ketishi kutilmoqda.

Axborot xavfsizligi va ma'lumot almashishda ishonch iqtisodiyoti. NTHD arxitekturasining eng mas'uliyatli qismi — axborot xavfsizligi va ma'lumotlar maxfiyligi tizimi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ma'lumot almashinuv ekotizimi ishtirokchilarining o'zaro ishonchi (data trust) — bu faqat texnik muammo emas, balki iqtisodiy muammo [12, 178b]. Agar korxonalar raqobatchilarning ma'lumotlariga platforma orqali kirib ketishidan qo'rqsa, ular platforma bilan ma'lumot ulashmaydi va ekotizim qadr-qimmatini yo'qotadi.

Ushbu muammoning yechimi uchun uch qatlamli ma'lumotlar arxitekturasini taklif etiladi. Ochiq qatlam — xalqaro platformalar va hukumat organlari bilan erkin almashiladigan agregatlashgan statistika (destinatsiya darajasida, korxona identifikatsiyasiz). Yopiq qatlam — korxonaning ichki operatsion ma'lumotlari, faqat o'z ehtiyojlari uchun, platforma bu ma'lumotga kirish huquqiga ega emas. O'rta qatlam — shartnomaviy asosda, aniq kelishilgan va cheklangan ma'lumotlar almashish (masalan, mehmonxona inventari va narxi — OTAg, OTA bronlash ma'lumotlari — mehmonxonaga). ISO 27001 va GDPRga muvofiq ma'lumotlarni boshqarish tizimi bu uch qatlamning texnik himoyasini ta'minlaydi [8, 156b].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu paragrafda tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan Milliy Turizm Raqamli Xabi (NTHD) arxitekturasini va xalqaro integratsiya mexanizmlari iqtisodiy jihatdan keng tahlil qilindi. NTHD konsepsiyasining asosi — GDS va OTA platformalari bilan ko'p qatlamli API integratsiyasi orqali mahalliy turizm subyektlarining global bozorga arzon, standart va samarali kirish imkonini ta'minlash. 3-rasmda ko'rsatilgan iqtisodiy hisob-kitob shuni tasdiqladi: mijoz uchun narx 21,7 foizga arzonlashadi, mehmonxonaning sof daromadi esa oshadi, chunki vositachilik xarajatlari 38 foizdan 8 foizga tushadi.

DXSh modelida qurilgan NTHDning moliyaviy tahlili ($NPV \approx 180-280$ mlrd so'm, $IRR \approx 28-34$ foiz, payback $\approx 3,2-3,8$ yil) investitsiyaning iqtisodiy jihatdan oqilona ekanligini isbotlaydi. Taqqoslash uchun: O'zbekiston hukumatining 2023-yildagi turizm infratuzilmasiga 1 150 mlrd so'mlik investitsiyasi 85,9 foizlik turistik o'sish (2023-yil) bilan korrelyatsiya ko'rsatdi. NTHD bundan ko'ra kichik investitsiya bilan yanada yuqori qo'shimcha daromad va'da qiladi [15, 67b].

Biroq taklif etilgan xalqaro integratsiya mexanizmlari qanchalik mukammal ko'rinmasin, ularning tarmoqqa keltiradigan real moliyaviy foydasi aniq hisob-kitob qilinishi va kelajakdagi turli iqtisodiy ssenariylar — optimistik, realistik va pessimistik — asosida baholanishi shart. NTHD joriy etilganida turizm daromadlari qanchalik o'sadi? Agar dollar kursi keskin o'zgarsa yoki mintaqaviy geosiyosiy vaziyat murakkablashsa, model natijalari qanchalik o'zgaradi? Bu savollarga javob berish va investitsiya qarorini to'liq asoslash uchun ssenariy tahlili metodologiyasi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank. World Development Report 2024: The Middle Income Trap. - Washington, D.C.: World Bank, 2024. - 228 b.

⁷ Muallif simulyatsiya hisob-kitoblari asosida tuzilgan, 2026.



2. Coase R.H. The Nature of the Firm // *Economica*. - 1937. - Vol. 4, №16. - P. 386–405.
3. Richardson I., Avots J. The API Economy in Travel and Tourism: From Integration to Value Creation. - London: Amadeus IT, 2023. - 112 b.
4. Buhalis D., Sinarta Y. Real-time Co-creation and Nowness Service: A Study of Tourism and Hospitality // *Service Industries Journal*. - 2019. - Vol. 39(11–12). 903-921.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Turizm sohasida naqdsiz to'lovlarni ragbatlantirish tadbirlari to'g'risida axborot. - Toshkent, 2024. - 32 b.
6. Rochet J.-C., Tirole J. Two-Sided Markets: A Progress Report // *RAND Journal of Economics*. - 2006. - Vol. 37(3). 645-667b.
7. Shapiro C., Varian H.R. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. - Boston: Harvard Business School Press, 1999. - 352 b.
8. ISO/IEC 27001. Information Security Management Systems - Requirements. 3rd ed. - Geneva: ISO, 2022. - 22 b.
9. World Bank Group. Public-Private Partnerships in Tourism: A Reference Guide. - Washington, D.C.: IBRD/World Bank, 2020. - 98 b.
10. OECD. Tourism Policy and International Tourism in OECD Countries. - Paris: OECD, 2023. - 148 b.
11. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. - New York: Free Press, 1985. - 557 b.
12. Ostrom E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. - Cambridge: Cambridge University Press, 1990. - 280 b.
13. SEGITTUR. Informe de Destinos Turísticos Inteligentes: Balance y Perspectivas. - Madrid: Secretaría de Estado de Turismo, 2024. - 88 b.
14. Singapore Tourism Board. Digital Innovation in Tourism: Annual Report 2023/2024. - Singapore: STB, 2024. - 64 b.
15. Holzner M. Tourism and Economic Development: The Beach Disease? // *Tourism Management*. - 2011. - Vol. 32(4). 922-933b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100